
Ertaklarda tarixiy antroponimlar hamda laqablarning qo'llanilishi

Teshebayeva Lolaxon Ravshanovna
teshebaeva_l@gmail.com
O'qituvchi,
Farg'ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada o'zbek xalq ertaklarida tarixiy antroponimlar va laqablarning qo'llanilishi, ularning semantik xususiyatlari va badiiy-funksional yuklamalari tahlil qilinadi. Antroponimlar va laqablar orqali obrazlarning ijtimoiy kelib chiqishi, mavqei va xarakteri ochib berilishi, ularning ertak matnidagi dramatik hamda estetik funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, ayrim tarixiy shaxslarning nomlari xalq og'zaki ijodi vositasida qanday tarzda mifologik yoki idealistik obrazga aylangani ham ko'rib chiqiladi. Ertaklardagi nomlash madaniyati orqali xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va estetik qarashlari aks ettirilgan.*

Kalit so'zlar *Real antroponimlar, majoziy, ertak, ekvisentrik, egzosentrik, endosentrik, laqab, personaj, onomastika*

Использование исторических антропонимов и прозвищ в народных сказках

Тешебаева Лолахон Равшановна
teshebaeva_l@gmail.com
Преподаватель,
Ферганский государственный
технический университет

Аннотация *В данной статье рассматривается употребление исторических антропонимов и прозвищ в узбекских народных сказках, а также анализируются их семантические особенности и художественно-функциональная нагрузка. Через антропонимы и прозвища раскрываются социальное происхождение, статус и характер персонажей, освещаются их драматические и эстетические функции в тексте сказки. Также рассматривается, как имена отдельных исторических личностей с помощью устного народного творчества трансформировались в мифологизированные или идеализированные образы. Через культуру наименования в сказках отражаются историческая память, ценности и эстетические взгляды народа*

Ключевые слова *реальные антропонимы, образное, сказочное, эквицентрическое, экзоцентрическое, эндоцентрическое, прозвище, персонаж, ономастика*

The use of historical anthroponyms and nicknames in folk tales

Teshebayeva Lolakhon Ravshanovna
teshebaeva_l@gmail.com
Lecturer,
Fergana state technical university

Annotation *This article analyzes the use of historical anthroponyms and nicknames in Uzbek folk tales, focusing on their semantic features and artistic-functional significance.*

Through these names and nicknames, the characters' social origins, status, and personalities are revealed, while their dramatic and aesthetic functions within the narrative are explored. The article also examines how the names of certain historical figures have been mythologized or idealized through oral folk creativity. The naming culture present in folk tales reflects the historical memory, values, and aesthetic outlook of the people.

Keywords *Real anthroponyms, figurative, fairy tale, equicentric, exocentric, endocentric, nickname, character, onomastics*

Kirish

Badiiy matnlarning har qanday turida, shu jumladan, ertaklarda ham real tarixiy nomlardan foydalaniladi. Bunday nomlar voqealarning chindan ham bo'lganligi haqida taassurot uyg'otib, ertakning hayotiyligini, ishonarliligini ta'minlashga yordam beradi.

Laqablar antroponimlarga qo'shib, shaxsga xos xarakter xususiyatlarni, tashqi ko'rinishiga xos jihatlarni norasmiy tarzda bayon qiluvchi nomlar sanaladi. Laqab antroponimga qo'shimcha yoki uning o'rnida ishlatiladigan norasmiy ifodali-majoziy yoki hissiy-baholovchi nom sifatida tavsiflanishi mumkin

Adabiyotlar tahlili va metodlar

O'zbek va ingliz antroponimikasi struktural xususiyatlari yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin aynan ushbu tillardagi ertaklar tarkibida keluvchi antroponimlarning struktur modeli borasida tahlillar yetarli emasligi bu yo'nalishda ham ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

E. Begmatov tomonidan "O'zbek tili antroponimikasi" nomli kitob yaratilgan bo'lib, uning to'rtinchi bobi antroponimlarning grammatik tuzilishi va yasaliş xususiyatlariga bag'ishlanadi. Tilshunos olim o'zbek tilidagi ismlarni lisoniy tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratadi (Begmatov, 2013).

Antroponimlar tilning lug'aviy boyligi bo'lgani uchun shu tilning tuzilishi, yasaliş qonuniyatlariga bo'ysunadi. V. Krasikning qayd etishicha, "garchi dunyoning barcha xaq-lari

yagona insoniyatni tashkil qilsa-da, alohida madaniy xalqlar, qabilalar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi farq ba'zan juda katta ahamiyatga egadir" (Krasik, 2004).

Antroponimlarning leksik-semantik usulda yasalişida substantivatsiya (Abdurahmonov, 1965) va adverbializatsiya (Gulyamov, 1954) qonuniyatlari amal qilinishi, ism vazifasiga o'tgan har qanday so'z o'zi avval mansub bo'lgan morfologik kategoriyadan ajraladi va ot (atoqli ot) kategoriyasiga o'tishi, sifatlar otlashadi va substantivatsiya usulida ulardan ismlar hosil bo'lishi tadqiq etilgan.

Muhokama

Badiiy matnda tarixiy shaxslarning nomlari va real toponimlar adabiy onomastikaning tarkibiy qismiga aylanadi va "gapira" boshlaydi. Masalan, turli asarlardagi Napoleon obrazlari bir-biriga o'xshamaydi va, ehtimol, ularning haqiqiy manbasiga adekvat bo'la olmaydi. Ismdagi tarixiy ma'lumotlar faqat yozuvchiga kerak bo'lgan darajada saqlanib qoladi va ma'lum bir asarga xos bo'lgan informatsion va hissiy "qo'shimcha og'irliklar" bilan to'ldiriladi (Karpenko, 1986).

O'zbek xalqiga xos ertaklarda *Alisher Navoiy*, *Husayn Boyqaro* antroponimlari ham uchraydi. Xususan, *Alisher Navoiy* antroponimi mashhur shoir, vazir sifatida qator ertaklarning shakllanishiga asos bo'lgan. "Navoiy bilan mardikor", "Navoiy bilan cho'pon", "Navoiy bilan yamoqchining o'g'li", "Navoiy kimni yomon ko'rgan?" kabi ertaklar shular jumlasidandir.

Shuningdek, “Dunyoda nima lazzatli?”, “Navoiy va Husayn” ertaklarida Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro antroponimlari qoʻllangan: *Husayn mirzoning qirq vaziri bor ekan. Qirqinchisi Alisher Navoiy ekan. Bir kam qirq vazir Navoiyni Husayn mirzoga yomonlay beribdi. Husayn mirzo Alisherni vazirlikdan boʻshatibdi* (“Dunyoda nima lazzatli?”).

Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning bolalikdan zamondosh doʻst boʻlib birga ulgʻayganlari, keyinchalik Husayn Boyqaro taxtga oʻtirgach, Alisher Navoiy unga vazirlik qilgani tarixiy haqiqat. Demak, bu haqiqat ertaklarda ham oʻz aksini topgan. “Ziyod botir” ertagida Alisher Navoiy va Sulton Husayn antroponimlarini uchratamiz:

Ular ov qila-qila bir necha kun deganda bir shaharga boribdilar. Bu shaharning nomi Hirot ekan. Ana shu yerda Sulton Husayn mirzo podsho ekan.

Temirchi oʻylab-oʻylab:

– *Bir yoʻl bor, – debdi, – u ham boʻlsa podshoning vaziri Alisher Navoiy bilan uchrashasan, butun sirni unga aytasan, dardingga oʻsha kishi davo topa oladi* (“Ziyod botir”).

“Qaysi yerda chivin yoʻq?” ertagida esa *Husayn Boyqaro* (podshoh)ning vaziri *Sherali* shaklida keladi: *Burungi zamonda Husayn Boyqaro degan podsho yashagan ekan. U vaziri Sheraliga...* (“Qaysi yerda chivin yoʻq”).

Bizningcha, bunda *Alisher* ismi oʻzgargan shaklda *Sherali* tarzida kelgan. Chunki tarixdan Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning eng mashhur vaziri boʻlgan, *Sherali* degan vazir haqida hech qanday maʼlumotlar keltirilmagan:

Abu Ali ibn Sino Sharqda ham, Gʻarbda ham olim, tabib sifatida qadimdan mashhur boʻlgan. Abu Ali ibn Sino antroponimi ham koʻplab ertaklarda uchraydi. “Johil podsho va Abu Ali”, “Kimyogar”, “Ibn Sino va jinni”, “Ibn Sino va tarbiya” kabi ertaklar ibn Sino nomi va hayoti asosida paydo boʻlgan.

Abu Ali ibn Sino – buxorolik olim Husayn, – deyishibdi ular. – Xotiningiz dardining davosini shu yigit biladi (“Johil podsho va Abu Ali”).

Ingliz ertaklarida ham real tarixiy shaxslar nomlari koʻp uchraydi. *King Arthur* (Qirol Artur) va *Sir Lancelot-Ser Lanselot*, *Sir Gawain-Ser Gavain*, *Sir Galahad-Ser Galahad*, *Sir Geraint-Ser Gerent*, *Sir Gareth-Ser Gareth*, *Sir Gaheris-Ser Gaheris*, *Sir Bedivere-Ser Bediver*, *Sir Ector-Ser Ektor*, *Sir Kay-Ser Kay*, *Sir Bors de Ganis-Ser Bors de Ganis*, *Sir Lamorak-Ser Lamorak*, *Sir Tristan-Ser Tristan* kabi yumaloq stol ritsarlari eng koʻp uchraydigan antroponimlardandir.

“Wittington and his cat” ertagi real tarixiy voqealarga asoslangan ertak sanaladi, bu ertak kambagʻal yigitning London meri boʻlishigacha boʻlgan hayotini yoritib beruvchi ertak sanaladi.

Dick Uittington chindan ham tarixiy shaxs sanaladi. Shu sababli ertakdagi antroponimlar ham tarixda mavjud boʻlgan shaxslar hisoblanadi. Tarixdan maʼlum boʻlishicha, janob *Uittington* va uning rafiqasi Londonda hashamatli va baxtli hayot kechirganlar, bir necha farzandlari boʻlgan. Janob *Uittington* Londonning sherifi, mayori boʻlgan, keyinchalik *Henry V* tomonidan unga ritsarlik maqomi ham berilgan.

Laqablar antroponimlarga qoʻshilib, shaxsga xos xarakter xususiyatlarni, tashqi koʻrinishiga xos jihatlarni norasmiy tarzda bayon qiluvchi nomlar sanaladi. Laqab antroponimga qoʻshimcha yoki uning oʻrnida ishlatiladigan norasmiy ifodali-majoziy yoki hissiy-baholovchi nom sifatida tavsiflanishi mumkin (Denisov, 2023).

D.Yermolovich (2001) laqablarni uch guruhga boʻlib tasnif qilgan. Ushbu tasnifga asoslangan holda ertaklarda qoʻllangan laqablarni guruhlarga ajratib tahlil qildik:

1. Antroponimlarni oʻzgartirish orqali yasalgan laqablar. Bu guruh oʻz ichida ikki turdagi laqablarni qamrab oladi:
 - a) familiyalarni qisqartirish orqali (*Cooper* familiyasidan *Coop* laqabi);
 - b) abbreviatsiya orqali, bunda ism va familiyalarning ayrim harflari yoki boʻgʻinlaridan laqab hosil qilinadi.

Misol uchun, mashhur ingliz yozuvchisi *George Bernard Show GBS* nomi bilan ataladi.

2. Antroponim va sifatdan tashkil topgan aralash turdagi laqablar:

- a) antroponimik va umumiy ot komponentlari ozmi-ko'pmi bir xil semantik ma'noga ega bo'lgan ekvisentrik laqablar. Antroponimik element (shaxsning haqiqiy ismlaridan biri) asosiy individuallashtiruvchi bo'lib, umumiy ot elementi uni qandaydir tashqi yoki faoliyat xususiyatlariga ko'ra tavsiflaydi. Masalan: *Ilohiy Sara* – taniqli fransuz aktrisasi Sara Bernhardt; *Uzun Tom* – Tomas Jefferson.

Ekvisentrik laqablar ertaklarda ham ko'p uchraydi. Ekvisentrik laqablarni qahramonning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq laqablar va qahramonning xarakter-xususiyatlari bilan bog'liq laqablarga ajratish mumkin.

a. 1) qahramonning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq laqablar. O'zbek xalq ertaklarida ko'p hollarda *kal* laqabi qo'llanganini uchratdik: *Yuz Muhammad kal* ("Ahmoq jo'ralar") *Nosir kal* ("Jonon payola"), *kal Abdulla* ("Saxiy bilan baxil") kabi.

"*Kal* so'zi nom emas, qadimgi tabu (taqiq) zahirida yuzaga kelgan atama, laqab ma'nosini anglatadi, u ijtimoiy ma'no kasb etgan o'tkir zehn, odil, adolatparvarlikdan darak berib turadi. Demak, *kal* so'zi qahramonning ma'naviy qiyofasi, xususan, odil, ayyorligini sharhlaydi. Uning ijtimoiy kelib chiqishi kambag'al-qashshoq, maqsad, vazifalari zulm, zo'rlikni fosh etish, kamchilikni qoralash, aql-idrok, tadbirkorlikni ulug'lashga qaratilgan" (Imomov, 2008).

"Quyosh yerining pahlavoni" ertagida *Bo'ri ko'sa* laqabli antroponim uchraydi. *Ko'sa* so'zi soqol chiqmaydigan erkaklarga nisbatan ishlatiladi. Shu sababdan bu laqab ham tashqi ko'rinishni ifodalovchi laqab hisoblanadi;

a. 2) qahramonning xarakter-xususiyatlari bilan bog'liq laqablar: *Xo'ja tambal* ("Xo'ja tambal"), *Abdulla chaqqon* ("Tuhmat") *Abdulla ayyor* ("Tuhmat"), *Simpleton Peter* ("Sodda Piter"), *Lazy Jack* ("Yalqov Jek") kabi. "Mumsik"

so'zi xasis ma'nosini anglatadi: *Soqi mumsik bilan Boqi mumsik degan ikki kishi yashagan ekan* ("Soqi mumsik bilan Boqi mumsik");

a. 3) qahramonning aqliy faoliyati bilan bog'liq laqablar. Ertaklarda qahramonning aqliy qobiliyatini ko'rsatuvchi *donishmand* so'zi antroponim sifatida kelgan shaxs oti shaklida ham, laqab shaklida ham ko'p uchraydi: *Zohid donishmand*, *Akram donishmand* ("Qorasoch pari"); *Silly Willy* (Ahmoq Villi) kabi.

b) endosentrik laqablarda antroponim yetakchi rol o'ynaydi va ikkinchi element shartli ravishda referentni tavsiflaydi, bunda asosiy e'tibor tovushlar uyg'unligiga qaratiladi. Masalan: *Dennis The Menace*, *Tricky Dickie*.

"Qirq yolg'on" o'zbek xalq ertagida shunday tovushlar uyg'unligiga ega laqablarni uchratamiz:

– *Bor ekan, yo'q ekan, bir katta to'qay bor ekan. Bu to'qayning ichida na cho'p, na giyohdan asar bor ekan. U to'qayning ichida uchta mergan topganini har kimga bergan, to'kilib qolsa tergan, qulochini kergan, birining oti Abdusamad akaning o'g'li Erali Ergan, birining oti Mirsayid akaning o'g'li Sherali Shergan va birining oti Nurmat akaning o'g'li Nurali Nurgan, gapni har yoqqa burgan ekan* ("Qirq yolg'on");

c) tashqi yoki faoliyat xususiyatlariga asoslangan qandaydir muhim xususiyatni ifodalovchi umumiy ot yetakchi rol o'ynaydigan ekzosentrik laqablar. Ertaklarda ekzosentrik laqablar ham ko'p uchraydi. Ertaklarda uchraydigan ekzosentrik laqablarni ham o'z ichida bir necha guruhlariga bo'lib tasnif qilishimiz mumkin:

c. 1) qahramonlarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq laqablar: *Hakim baliqchi* ("Hakim baliqchi"), *Siddiq yamoqchi* ("Quyosh yerining pahlavoni"), *Rustam o'tinchi* ("Quyosh yerining pahlavoni"), *Abdurayim o'tinchi* ("Luqmoni

hakim"), *Qo'ldosh podachi* ("Bir xumcha oltin"), *Ahmad bo'zchi* ("Davlat bilan Ahmad"), *Qobil kulol* ("Qorasoch pari"), *Ustaboy kulol* ("Qarg'a bilan qo'zi"), *Usta Olim* ("Qorasochxon"), *Yusufboy tabib* ("Ikki tabib"), *Mahmud yamoqchi* ("Mahmud yamoqchi"), *Normat yamoqchi* ("Navoiy bilan yamoqchining o'g'li"), *Navro'z qaroqchi* ("Navro'z qaroqchi"), *Begmat ovchi* ("Noshud bola"), *Abdusattor novvoy* ("Ayo'z"), *Sodiq savdogar* ("Mohistara") kabi.

Ustaboy kulol ("Qarg'a bilan qo'zi") ifodasida umumiydan xususiyligga tamoyiliga amal qilinganiga guvoh bo'lamiz, ya'ni usta – umumiy nom, kulol – xususiylig.

O'zbek xalq ertaklarida *usta Toyirjon degan vazir* ("Luqmoni hakim"), *Qosim jallod degan bir vazir* ("Tuhmat"), *qo'shiqchi Ali degan cho'pon* ("Zolim xon bilan cho'pon") kabi qo'llanishlar ham uchraydiki, ularda personajning avvalgi va hozirgi maqomiga ishora qilinadi, ya'ni Toyirjon degan vazirning avval usta bo'lgani, Qosim degan vazirning avval jallod bo'lgani, Ali degan cho'ponning qo'shiqchi ekanligi kabi.

Ingliz ertaklarida *Red Riding Hood* – *Qizil Qalpoqcha*, *Snow White* – *Oppog'oy*, *Rose Red* – *Qizil Atirgul* kabi nomlar keltirilgan bo'lib, aslida ular ism emas, balki qahramonlarning kiyimi, tashqi ko'rinishi, nimaga qiyos qilinishiga ishora qiluvchi laqablardir. Ular ham qahramonlarning ismisiz keltirilgan (Whittington, 2023).

Ingliz xalq ertaklarida personajlarning tashqi ko'rinishini ifodalovchi laqablar guruhiga *Cap o' Rushes* (Qamish shlyapa), *Tattercoats*

(Yirtiq palto), *Teeny-tiny* (*Mittivoy*) va boshqalar kiradi. "Cap o' Rushes" ertagidagi asosiy qahramon qizning bu laqabni olishiga sabab, qiz o'zi uchun qamishdan kiyim yasab boshidan to oyog'igacha har doim o'ranib yurganligi uchun Cap o' Rushes nomi bilan ataladi.

Xulosa

Ertaklarga xos antroponimlarning asosiy vazifasi faqatgina nomlash sanalmaydi. O'zbek tilida ham, ingliz tilida ham atoqli nomlar o'quvchilarda ma'lum hissiyotlarni uyg'otish, ta'sir etish, ma'lumot berish, ismlar yordamida hikoya qiluvchining niyat-maqсадlarini kelgusi avlodlarga yetkazish vazifalarini ham bajaradi. O'zbek ertaklarida *Doro*, *Iskandar Zulqarnayn*, *Alisher Navoiy*, *Husayn Boyqaro*, *Abu Ali ibn Sino* kabi; ingliz ertaklarida *Qirol Artur*, *Qirol Edward III*, *Qirol Henry V*, *Sir Whittington* kabi tarixiy antroponimlar uchraydi. Bu esa chog'ishtirilayotgan tillarga xos ertaklarda shohlar, qirollar va yuqori mavqega, obro'-e'tiborga ega bo'lgan shaxslar nomlari ko'p qo'llanilishini anglatadi. Ertaklarda antroponimlar bilan yonma-yon holda laqablardan ham foydalaniladi. Laqablar ertak qahramonlariga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Ingliz ertaklarida laqablar nisbatan kam, o'zbek ertaklarida esa keng qo'llaniladi.

O'zbek ertaklarida ham, ingliz ertaklarida ham antroponimlar ko'p hollarda qahramonning xarakter xususiyatlari, tashqi ko'rinishini ifoda etadi. Ayrim hollarda esa ertaklarda qo'llangan ism teskari ma'no anglatishi ham mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov, G'. (1960). O'zbek tilida substantivatsiya (otlashish). Tilshunoslik masalalari (1-kitob, B. 78–79). Toshkent: O'z FA nashriyoti.
2. Begmatov, E. (2013). O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent: Fan.
3. Denisova, E. V. (n.d.). Сказочное имя-прозвище в системе имен собственных. CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/skazochnoe-imya-prozvische-v-sisteme-imen-sobstvennyh> (Accessed: 20.06.2023).
4. Ermolovich, D. I. (2001). Imena sobstvennye na styke yazykov i kultur (pp. 88–90). Moskva.

5. Galkovskaya, Yu. M. (n.d.). Имена персонажей британских народных сказок и их использование в учебном процессе.
6. Gulyamov, A. (1954). K voprosu ob adverbializatsii v uzbekskom yazyke. Uchyonye zapiski TashGPI (Vyp. 2). Toshkent: Uchpedgiz.
7. Imomov, K. (2008). O'zbek xalq nasri poetikasi (B. 182). Toshkent: Fan.
8. Karasik, V. I. (2002). Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs (pp. 73–85). Volgograd: Peremena.
9. Karpenko, Yu. A. (1986). Imya sobstvennoe v khudozhestvennoy literature. *Filologicheskie nauki*, (4), 38.
10. Whittington, D. (n.d.). In Encyclopædia Britannica. <https://www.britannica.com/topic/Dick-Whittington> (Accessed: 18.06.2023)